

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

KUBAYEV ULUG'BEK RAXMATULLAYEVICH

**TALABALARNING VIRTUAL TA'LIM MUHITDA 3D
MODELLARNI YARATISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Kubayev Ulug'bek Rahmatullayevich

Talabalarning virtual ta'lim muhitda 3d modellarni yaratish kompetentligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish metodikasi..... 3

Кубаев Улугбек Рахматуллаевич

Методика совершенствования программного обеспечения для развития компетентности студентов в создании 3D-моделей в виртуальной образовательной среде..... 23

Kubayev Ulugbek Rahmatullayevich

Methodology for improving software to develop students' competence in creating 3D models within a virtual learning environment..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

KUBAYEV ULUG'BEK RAXMATULLAYEVICH

**TALABALARNING VIRTUAL TA'LIM MUHITDA 3D MODELLARNI
YARATISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY
TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PHD/Ped8761 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor

Rasmiy opponenlar:

Karlibaeva Guljaxan Ermekbaevna
pedagogika fanlari doktori, professor
Urazmetova Shoira Avazmetovna
pedagogika fanlari fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal kirib kelishi o'quv jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Virtual ta'lim muhitida 3D modellashtirish asosida talabalarning nazariy bilimlarni kengaytirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv jarayonining interaktivligini oshirish, 3D modellashtirish va virtual laboratoriyalar orqali muhandislik, arxitektura, tibbiyot, tabiiy va aniq fanlar darslarini takomillashtirish, 3D texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish, virtual ta'lim muhitida talabalar uchun 3D modellarni yaratish bo'yicha kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan amaliy loyihalarni bajarish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida 3D modellashtirish va virtual muhitga asoslangan ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish, yangi o'quv dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqish, Yevropa Ittifoqining "Digital Education Action Plan", AQShning "STEM Education Strategic Plan" xalqaro dasturlar zamonaviy texnologiyalarini o'quv jarayonlariga integratsiya qilish ortida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktab va universitet darajasida "3D design and modeling", "Augmented Reality in Education", "Digital Prototyping" o'quv dasturlarini takomillashtirish, virtual ta'lim muhitida 3D texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, virtual muhitni rivojlantirish va 3D texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Raqamli ta'lim resurslarini yaratish, axborot texnologiyalari bilan bog'liq yangi o'quv kurslarini tashkil etish ustuvor yo'nalishlardan biri"¹ sifatida belgilangan. Natijada virtual ta'lim muhitida talabalar uchun 3D modellashtirish kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy ta'minotni takomillashtirish pedagogic imkoniyatlari ko'payadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida", 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid qator boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr – "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq raqamli ta'lim resurslarini yaratish va axborot texnologiyalari bilan bog'liq yangi o'quv kurslarini tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb belgilandi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Ta’lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish A.A. Abduqodirov, M.M. Aripov, U.Sh. Begimqulov, P.M. Jalolova, M.E. Mamarajabov, F.I. Zakirova; kompyuterli modellashtirishdan foydalanishning nazariy va amaliy tadbiri M.H. Lutfillayev, M.X. Allamberganova, H.B. Nikadambayeva, R.D. Shodiyev, T.T. Shoymardonov; elektron resurslarni yaratish va ta’lim jarayonida foydalanish R.H. Jo‘rayev, N.I. Taylakov, N.A. Muslimov, M.Tsoy, M.A. Fayziyev tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, virtual ta’lim muhiti yaratish va 3D modellashtirishni tatbiq etish A. Kuznetsov, E.V. Baranova, G.T. Basiev, N.I. Samoylova, S.M. Komarova, S.V. Savelyeva, Yu.K. Babanskiy tomonidan tadqiq etilgan.

O‘qitish metodlarini rivojlantirish J. Gubbi, C. Zhang, S.P. Biswas sun‘iy intellekt va virtual muhit orqali o‘qitish samaradorligini oshirish; Bransford, Mason & Bohl, Voogt & Roblin 3D modellashtirish yordamida o‘quv jarayonlarini vizualizatsiya qilishning pedagogik asoslarini shakllantirish; S. Barua, Bayrak, Ertas, Mykhailyshyn, Smetana & Bellar ta’lim tizimida interfaol texnologiyalarni joriy etish, virtual laboratoriyalar va kengaytirilgan reallik imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan. (2021-2024 yy).

Tadqiqotning maqsadi talabalarning virtual ta’lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligini dasturiy ta’minot asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

virtual ta’lim muhitida 3D modellarni yaratish kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning virtual ta’lim muhitida 3D modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

3d modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirishning o‘qitish dasturiy ta’minotini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasini samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida talabalarning virtual ta'lim muhitida 3D modellarni yaratish kompetentligini dasturiy ta'minotini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetidan jami 540 nafar talaba respondent sifatida ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning virtual ta'lim muhitida 3D modellarni yaratish kompetentligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. tadqiqot davomida tizimli yondashuv – tadqiqot obyektining yaxlitligini yoritib berish, an'anaviy – elektron axborot virtual resurs yaratishning modellari va texnologiyalari; modellashtirish – matematik modellashtirish, kompyuter imitatsion modellar; tadqiqotda sohaga doir ilmiy, DTS, o'quv dasturi, darslik va ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so'rovnoma) usullar; pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik-statistik tahlil etish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

virtual ta'lim muhitida 3D modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari Web-kvest, interaktiv simulyasiya va virtual reallik (VR) usullaridan foydalanishda sun'iy intellekt vositasida talabalarning ijodiy va analitik tafakkurni rivojlantirish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni raqamli ta'lim platformasiga transformatsiyalash asosida aniqlangan;

talabalarga 3D modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini oshirish metodikasi Blender, 3D Max Studio, SketchUp dasturiy ta'minotlardan foydalanish, simulyasiya, dinamik modellashtirish va virtual muhitda real vaqtda render qilish imkoniyatlarini integrativlik tamoyillariga moslashtirish hamda virtual dars materiallarini hamkorlikda ishlash va teskari aloqa o'rnatish asosida takomillashtirilgan;

talabalar uchun 3D modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) platformalarining integrativ va texnologik talablariga mobil modellashtirish hamda talabalarda mediasavodxonlik va virtual muhitda ishlash ko'nikmalarini yorug'lik va renderlash manbalarini tanlash asosida takomillashtirilgan;

3D modellashtirishni yaratish metodikasi samaradorligi virtual reallik va kengaytirilgan reallik muhitida simulatsiya texnologiyalarini talabalarning axborot va texnologik kompetentligini oshirish, joriy etish hamda virtual muhitda loyihalash jarayonlarining ichki integratsiyasi va real vaqtda hamkorlik qilish imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Iqtisodiyot va biznes yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida "Virtual ta'lim muhitida 3D modellarni yaratish" kompetentligini rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlarining asosiy mavzulari tanlab olindi.

Virtual ta'lim muhitida 3D modellashtirish texnologiyalarining samaradorligini baholash bo'yicha tajriba-sinovlar o'tkazildi. Tajriba natijalari asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Computer2 kubayev" raqamli platformasini yaratildi. Ushbu platforma, talabalarga 3D modellashtirish va kompyuter ilmi asoslari fanini o'rganishda interaktiv va samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Platforma orqali talabalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarish, o'zaro hamkorlikda loyihalar ishlab chiqish, video tahlillar yaratish va topshiriqlarni almashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

3D modellar va virtual laboratoriyalar "Virtual ta'lim muhitida 3D modellashtirish" bo'yicha barcha mavzular mazmuniga singdirildi, bu esa o'quv jarayonining interfaolligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan metodik yondashuv, algoritmi va yaratilgan 3D modellar yordamida virtual ta'lim muhitida 3D modellarni yaratish kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirish bilan izohlanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan 3D modellashtirish metodikasi talabalarning vizual tasavvur, analitik fikrlash va mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Virtual muhitda 3D modellar yaratish bo'yicha o'quv materiallarining innovatsion yondashuvlar asosida tizimlashtirilishi ta'lim jarayonining interfaolligini oshiradi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'un holda rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari virtual ta'lim muhitida 3D texnologiyalar asosida interfaol va masofaviy ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu metodika an'anaviy va masofaviy ta'lim integratsiyasini samarali amalga oshirishga imkon yaratadi hamda talabalarning mustaqil izlanish, o'quv materiallarini tahlil qilish, muammoli masalalarni hal etish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishiga yordam beradi. Shuningdek, o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash, yangi axborotlarni izlash va 3D texnologiyalar yordamida muammolarni tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish orqali talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim muhitida BIM texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

virtual ta'lim muhitida 3D modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari Web-kvest, interaktiv simulyasiya va virtual reallik (VR) usullaridan foydalanishda sun'iy intellekt vositasida talabalarning ijodiy va analitik tafakkurni rivojlantirish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni raqamli ta'lim platformasiga transformatsiyalash asosida aniqlashga oid takliflar PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish"

nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025 yil 2-iyundagi 11-05-3643/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada virtual ta'lim muhitida 3D modellarni yaratish kompetentligini rivojlantirish samaradorligi oshgan.

Talabalarga 3D modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini oshirish metodikasi Blender, 3D Max Studio, SketchUp dasturiy ta'minotlardan foydalanish, simulyasiya, dinamik modellashtirish va virtual muhitda real vaqtda render qilish imkoniyatlarini integrativlik tamoyillariga moslashtirish hamda virtual dars materiallarini hamkorlikda ishlash va teskari aloqa o'rnatish asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-2020042147 raqamli "Oliy ta'lim muassasalari uchun matematika va uni o'qitish metodikasidan 3D tizimli interaktiv axborot-ta'lim resurslarini yaratish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025 yil 2-iyundagi 11-05-3643/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning virtual ta'lim muhitida 3D modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirishga erishilgan.

Talabalar uchun 3D modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) platformalarining integrativ va texnologik talablariga mobil modellashtirish hamda talabalarda mediasavodxonlik va virtual muhitda ishlash ko'nikmalarini yorug'lik va renderlash manbalarini tanlash asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025 yil 2-iyundagi 11-05-3643/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada 3D modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirishning o'qitish dasturiy ta'minotini rivojlantirish metodikasi mazmuni boyitilgan.

3D modellashtirishni yaratish metodikasi samaradorligi virtual reallik va kengaytirilgan reallik muhitida simulyasiya texnologiyalarini talabalarning axborot va texnologik kompetentligini oshirish, joriy etish hamda virtual muhitda loyihalash jarayonlarining ichki integratsiyasi va real vaqtda hamkorlik qilish imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025 yil 2-iyundagi 11-05-3643/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 138 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **talabalarni virtual ta'lim muhitida 3d modellarini yaratish kompetentligini rivojlanishning nazariy asoslari** deb nomlanib, unda virtual ta'lim muhitida 3D modellarining ta'limdagi o'rni, ularni yaratish kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, hamda talabalar uchun 3D modellarini yaratish kompetentligiga qo'yiladigan talablar tahlil qilingan.

Hozirgi zamon ta'lim tizimi talabalar faolligini oshirish, ularning bilimni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 3D texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini modellashtirish va simulyatsiya qilish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, texnika, muhandislik, tibbiyot va tabiiy fanlar sohasida 3D modellarni qo'llash an'anaviy laboratoriya ishlarining o'rnini bosib, zamonaviy virtual laboratoriyalar yordamida o'quvchilarni amaliy faoliyatga yo'naltirish imkonini yaratadi

Virtual ta'lim muhiti va 3D modellar o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, ular talabalar uchun yangi ta'lim vositalarini yaratish hamda interaktiv o'qitish metodlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Virtual muhitda o'quvchilarning ishtiroki passiv emas, balki interaktiv bo'lib, ular 3D modellarga ta'sir o'tkazish, obyektlarni tahlil qilish va o'z bilimlarini amaliy tajribaga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. 3D texnologiyalarni ta'limga joriy etish muhim ahamiyat kasb etib, u o'quv materiallarini aniq va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi. Masalan, muhandislik fanlarida 3D modellar yordamida talabalar real dunyodagi loyihalarni yaratishi va ularning ishlash prinsiplarini o'rganishi mumkin. Shu bilan birga, biologiya va tibbiyot sohasida 3D texnologiyalar inson organlari va tizimlarining tuzilishini batafsil o'rganishga imkon yaratadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) roli tobora ortib bormoqda. Bu jarayonning muhim jihatlaridan biri sifatida 3D modellarni virtual ta'lim muhitiga integratsiya qilish va undan samarali foydalanish masalasi o'rganilmoqda. Mazkur mavzu bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borib, AKTning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tadqiq etganlar. Jumladan, A.A. Abduqodirov, M.M. Aripov, U.Sh. Begimqulov, P.M. Jalolova, M.E. Mamarajabov va F.I. Zakirova kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu sohaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, ularning ishlari virtual ta'lim muhiti, 3D texnologiyalar hamda raqamli o'qitish metodikalarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

M.E. Mamarajabovning ilmiy izlanishlari zamonaviy o'qitish usullari va AKT integratsiyasiga bag'ishlangan bo'lib, u pedagogik jarayonda 3D modellar va virtual

ta'lim muhitidan foydalanish masalalarini tadqiq qilgan. Uning fikricha, zamonaviy o'quv metodikalarini ishlab chiqishda AKTning ta'lim jarayoniga moslashuvchanligini hisobga olish lozim. Olimning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 3D modellar va simulyatsiya texnologiyalari orqali talabalar real hayotda duch keladigan murakkab jarayonlarni oldindan o'rganib, o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. M.E. Mamarajabovning ishlari AKT vositalaridan foydalanishning pedagogik va metodik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u 3D texnologiyalar asosida ta'lim berish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan.

A.L. Arseniyning ilmiy ishlari virtual ta'lim muhiti, sun'iy intellekt asosidagi o'qitish tizimlari va interaktiv pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq. U o'z tadqiqotlarida zamonaviy texnologiyalar, jumladan, 3D modellar va virtual reallik vositalari ta'lim jarayoniga qanday ta'sir qilishini o'rgangan. A.L. Arseniyning fikricha, 3D texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali an'anaviy dars jarayonidan sezilarli darajada samaraliroq natijaga erishish mumkin. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 3D modellar talabalar uchun o'rganilayotgan mavzularni jonlantirish imkonini beradi va ularga mavzularni real hayot bilan bog'lashga yordam beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan, 3D modellar va virtual ta'lim muhitining o'rni beqiyosdir. Ushbu texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, talabalar bilim darajasini yuksaltirish va ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kelajakda 3D modellar va virtual laboratoriyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Virtual ta'lim muhitida 3D modellashtirish texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari talabalarga murakkab tushunchalarni amaliyotda qo'llash, fazoviy tafakkurni rivojlantirish va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatini beradi. 3D muhitlar o'quvchilarga faollikni oshirish va kognitiv chuqurlashuvni kuchaytirish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. 3D modellashtirish texnologiyalari o'quvchilarga xatolik qilish orqali o'rganish, amaliyotda o'zlashtirish va real muammolarni hal qilishda tajriba orttirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ijodiy fikrlash va analitik tafakkurni rivojlantiradi.

Virtual ta'lim muhitining yana bir afzalligi shundaki, u talabalarga individual yondashuvni taqdim etadi, ya'ni har bir talaba o'zining bilim darajasi va o'rganish tezligiga mos tarzda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa motivatsiya va o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. 3D modellashtirish texnologiyalari konstruktivistik, loyihaviy yondashuvlar va masalaga yo'naltirilgan o'rganish kabi zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashadi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, talabalar bilimni o'z tajribasi va o'zaro faoliyat orqali hosil qilishadi, bu esa 3D texnologiyalarining imkoniyatlari bilan yanada samarali tarzda amalga oshiriladi. Loyihaviy yondashuv esa o'quvchilarga real muammolarni hal qilishga qaratilgan o'rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa 3D modellar yordamida yanada samarali

amalga oshiriladi. Masalaga yo'naltirilgan o'rganish esa o'quvchilarga tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3D texnologiyalaridan foydalanish nafaqat talabalarning texnik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning kreativ fikrlash, fazoviy tasavvur va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Blender, Autodesk Maya va 3ds Max kabi zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinganida, ular o'quvchilarga nafaqat modellar yaratish, balki ular bilan interaktiv tarzda ishlash imkonini beradi. Bu texnologiyalar yordamida talaba o'z bilimlarini mustahkamlash va yangi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. 3D texnologiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish va ularning faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligiga qo'yiladigan talablar ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va keng joriy etilishi bilan bog'liq. Bugungi kunda, ta'lim jarayonida VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo'llanilishi, talabalar uchun murakkab nazariy tushunchalarni ko'rgazmali va amaliy shaklda o'zlashtirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar talabalar qiziqishini oshirib, o'quv samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Talabalar 3D modellashtirish kompetentligini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar bilan yuzlashadi, jumladan dasturiy ta'minotni murakkabligi, fazoviy tafakkur va grafik fikrlashning yetarlicha rivojlanmaganligi, texnik xatoliklar va modellarni optimallashtirishdagi muammolar. Bu muammolarni bartaraf etish uchun qisqa muddatli treninglar, video-darslar, o'quv qo'llanmalari orqali talabalarni dasturlarga tez tayyorlash zarur.

Shu bilan birga, talabalar 3D modellashtirishni samarali o'zlashtirish uchun faqat amaliy harakatlar emas, balki chuqur nazariy va texnik bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Talabalar dasturiy ta'minotlar bilan ishlash, fazoviy tafakkur, geometriya, perspektiva, materiallar va teksturalar, shuningdek, algoritmik fikrlash asoslarini bilishlari zarur. Bu bilimlar talabaga murakkab grafik muhitda erkin ishlash, o'z modelini mustaqil ishlab chiqish va tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida 3D texnologiyalarni o'rgatishning samarali yo'llari, talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Bu kompetensiyalarni shakllantirish, talabalar bilimini oshirish, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladi. 3D modellar yaratish kompetentligiga qo'yiladigan talablar ta'lim jarayonini ko'rgazmali va interaktiv qilish imkonini beradi, bu esa talabalarni o'z faoliyatlarida yanada muvaffaqiyatli qilishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Virtual ta'lim muhitida 3d modellarini yaratish kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot yaratish va joriy etish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida virtual ta'lim muhitida 3D modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan dasturiy vositalar, metodik yondashuvlar va ularni joriy etishning metodikasi ko'rib chiqilgan. Bobda virtual ta'limda 3D modellashtirishni o'rgatishda ishlatiladigan dasturiy ta'minotlar tahlil qilindi va bu vositalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritildi. Shuningdek, 3D modellarini yaratish kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab


chiqildi. Dasturiy ta'minotni o'quv jarayoniga integratsiya qilish va uni samarali joriy etishning metodikasi ishlab chiqildi. Shuningdek, 3D modellashtirishni o'rganish jarayonida talabalar uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar ham muhokama qilindi.

3D modellashtirish jarayoni bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar har bir modelning maqsadga muvofiq, sifatli va realistik ko'rinishga ega bo'lishini ta'minlaydi. Quyidagi jadvalda 3D model yaratish jarayonining asosiy bosqichlari va ularning mazmuni umumlashtirilgan holda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

3D modellashtirish jarayonining asosiy bosqichlari

№	Bosqich nomi	Amalga oshiriladigan ishlar
1	Konsepsiya va rejalashtirish Model yaratishdan oldin uning vazifasi va ko'rinishi aniq belgilanadi	Modelning maqsadi aniqlanadi (animatsiya, o'yin, arxitektura); Referens materiallar va analoglar o'rganiladi; Eskiz va chizmalar tayyorlanadi, asosiy g'oya shakllantiriladi.
2	Model yaratish va teksturalash ob'ektning shakli va sirt ko'rinishi yaratiladi	Poligon yoki NURBS modellashtirish orqali model asosini yaratish; Skulping orqali detallarni qo'shish; UV xaritalarni tayyorlash va teksturalarni ulash; Modelga material, rang va sirt effektlarini qo'shish.
3	Yorug'lik va rendering Modelga yorug'lik manbalari qo'shiladi va yakuniy tasvir yaratiladi	Nur manbalarini tanlash va joylashtirish; Yorug'lik va soya parametrlarini sozlash; Rendering sozlamalari orqali yakuniy rasm yoki animatsiyani olish
4	Yakuniy ishlov berish Render qilingan tasvirga oxirgi estetik va texnik ishlov beriladi	Rang va kontrastni to'g'rilash; Qo'shimcha effektlar (yorug'lik nuri, tuman, soya) qo'shish; Elementlar kompozitsiyasi va umumiy ko'rinishni yaxshilash.



3D modellashtirish jarayoni bosqichma-bosqich va o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Har bir bosqichda talabalar texnik va ijodiy ko'nikmalarni shakllantiradi, natijada sifatli va maqsadga muvofiq 3D model

yaratiladi. Ushbu metodik yondashuv ularning mustaqil ishlash va loyihalash kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Undan tashqari ushbu bobda virtual ta'lim muhitida 3D modellarini yaratish uchun zarur bo'lgan dasturiy vositalar tahlil qilindi. Blender, Autodesk Maya, Autodesk 3ds Max, SketchUp va Tinkercad kabi mashhur 3D modellashtirish dasturlarining xususiyatlari va afzalliklari ko'rib chiqildi. Har bir dastur o'zining kuchli va kuchsiz tomonlariga ega bo'lib, ta'lim jarayoniga mosligi tahlil qilindi. Blenderning bepul va ochiq manbali bo'lishi, Maya va 3ds Max dasturlarining sanoat talablariga mosligi, SketchUp'ning oson o'zlashtirilishi, Tinkercad'ning boshlovchilar uchun qulayligi kabi jihatlar alohida ta'kidlandi. Shu bilan birga, dasturlarni ta'limda samarali qo'llash uchun qiyosiy jadvallar yaratilib, har bir dastur uchun ta'limga mosligi va qo'llanilish sohalari ko'rsatib o'tildi. 3D modellashtirishning samarali ta'lim muhitini yaratish uchun zarur bo'lgan metodologik yondashuvlar ishlab chiqildi. Dasturlarni tanlashda ularning maqsadga muvofiqligi muhim: masalan, boshlang'ich o'quvchi uchun Blender yoki SketchUp mos bo'lsa, professional animatsiya kursi uchun 3d Max Studio yoki Maya talab etilishi mumkin.

Bugungi kunda raqamli ta'lim muhiti, zamonaviy texnologiyalar va 3D modellashtirish sohasining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonida yangi kompetensiyalarni shakllantirishni talab qilmoqda. Mehnat bozorida zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal o'zlashtirgan, 3D modellar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli, virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligiga ega bo'lgan talabalarni tayyorlash ijtimoiy buyurtma sifatida dolzarb vazifa sifatida qo'yilmoqda. Bu talabga javoban, oliy ta'lim muassasalarida ushbu yo'nalishda metodik qo'llanmalarni yaratish va o'quv jarayoniga integratsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu metodik modelni ishlab chiqishda quyidagi asosiy maqsad va vazifalar belgilandi. Asosiy maqsad – talabalarning virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashdan iborat (1-rasmga qarang).

Xususiy maqsadlar: talabalarga 3D modellashtirish jarayoni va dasturlarini (Blender, 3ds Max Studio, SketchUp) o'zlashtirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; talabalarga 3D modellarni virtual ta'lim muhitida integratsiya qilish usullarini o'rgatish.

Talabalarning virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligini rivojlantirish metodik modelini ishlab chiqishda quyidagi vazifalar belgilandi: talabalarga 3D modellar yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar (Blender, 3ds Max Studio, SketchUp)dan foydalanishni o'rgatish; talabalarga 3D modellar yaratishning asosiy tamoyillari va texnikalarini amaliy mashg'ulotlar orqali tushuntirish; o'quv-uslubiy materiallar va qo'llanmalarni yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash; talabalarning yaratilgan 3D modellarni monitoring qilish va ularni o'quv jarayonida qo'llash bo'yicha yutuqlarini aniqlash; 3D modellar yaratishning o'quv jarayonidagi samaradorligini tahlil qilish.


Modelning maqsadli blokida ijtimoiy buyurtma, asosiy maqsad va vazifalar belgilandi. Modelning metodologik blokida talabalarning virtual ta'lim muhitida 3D

modellar yaratish kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar, tamoyillar va bosqichlar aks ettirildi.

Talabalarning virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida ishlab chiqildi.


Tadqiqotlarda "tizimlilik" va "uzluksizlik" tushunchalari o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

Mutaxassis tayyorlash jarayonida tizimlilik tushunchasi o'quv jarayonining barcha bosqichlarini o'zaro aloqador va izchil bo'lishini taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasasida "Computer-2" fani doirasida talabalarning 3D modellar yaratish kompetentligini rivojlantirishda tizimli yondashuv asosida o'quv mazmunini, mashg'ulotlar shakllarini va baholash mezonlarini uzviy bog'liqlikda tashkil qilish muhimdir.



Rasm 1. - Virtual ta'lim muhitida 3D modellar yaratishda talabalar kompetensiyasini oshirish modeli

3D modellariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar virtual ta’lim muhitida o‘quv jarayonining sifatini oshirish, talabalarni amaliy bilimlar bilan ta’minlash va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi ta’limda bu modellar interaktiv, moslashuvchan hamda foydalanuvchi uchun qulay bo‘lishi zarur. Aynan shunday yondashuvlar orqali iqtisodiyot va biznes yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar murakkab iqtisodiy tushunchalarni vizual tarzda anglab, ularni tahlil qilish va amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalarda 3D modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy raqamli platformalarning samarali integratsiyasi uchun “[Computer2 kubayev](https://sites.google.com/view/kubayevlugbek/asosiy-menu)” (<https://sites.google.com/view/kubayevlugbek/asosiy-menu>) elektron platformasi yaratildi. Uning misolida, ushbu muhit o‘qituvchiga nafaqat ta’lim kontentlarini tizimli joylashtirish, balki talabalarni bosqichma-bosqich mustaqil faoliyatga yo‘naltirish imkonini ham beradi (2-rasmga qarang).



2-Rasm. Platformaning ishlash prinsipi

Bu platforma orqali quyidagi imkoniyatlar taqdim etiladi: har bir talabaga individual topshiriq va uni o‘z darajasiga moslashtirish; 3d model fayllarini yuklash, tahrirlash va baholash jarayonlarini raqamli tarzda boshqarish; vizual dars materiallari (GIF, video, grafik taqdimotlar) asosida murakkab tushunchalarni tushuntirish; hamkorlikda ishlash: talabalarning umumiy loyiha fayllari ustida birgalikda ishlashi (Google Drive orqali); baholash va teskari aloqa: har bir model texnik mezonlar,

dizayn sifati va funksionallik asosida ball tizimi orqali baholanadi; mobil moslashuv: talabalar o'z modellari ustida turli qurilmalarda ishlay olishadi.

